

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY

8





Axmedov Bekjan Askarovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
Email: b.axmedov@cspu.uz

RAQAMLI AXBOROT MUHITIDA YOSHLARGA TA'SIR KO'RSATUVCHI ASOSIY TAHIDIDLAR VA XATARLARNI TAHLIL QILISH

Annotatsiya: Maqolada raqamli axborot muhitida yoshlar duch kelayotgan asosiy tahididlар va xatarlarni aniqlash hamda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda internet tarmog'idagi xavfsizlik muammolari, noto'g'ri axborotlar (feyk yangiliklar), kiberzo'ravonlik, shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi va axborotga nisbatan tanqidiy fikrlash darajasi kabi omillar o'rganiladi. Shuningdek, yoshlarning raqamli madaniyatini shakllantirishda ta'lim muassasalari, ota-onalar va davlat siyosatining o'rni ochib beriladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, xavfsiz axborot muhitini yaratish bo'yicha amaliy va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so 'zlar: raqamli axborot, yoshlar, tahididlар va xatarlar, xavfsiz axborot muhiti, kiberxavfsizlik, pedagogika, noto'g'ri ma'lumotlar, xavfsizlik muammolari.

Ахмедов Бекжан Аскarovич

Преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета

АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ УГРОЗ И ОПАСНОСТЕЙ ДЛЯ МОЛОДЁЖИ В ЦИФРОВОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЕ

Аннотация: В статье рассматриваются основные угрозы и опасности, с которыми сталкивается молодёжь в цифровой информационной среде. В исследовании изучаются такие факторы, как проблемы безопасности в интернете, распространение ложной информации (фейковые новости), кибербуллинг, утечка личных данных и уровень критического мышления по отношению к информации. Также раскрывается роль образовательных учреждений, родителей и государственной политики в формировании цифровой культуры молодёжи. На основе результатов исследования разрабатываются практические и педагогические рекомендации по созданию безопасной информационной среды.

Ключевые слова: цифровая информация, молодёжь, угрозы и опасности, безопасная информационная среда, кибербезопасность, педагогика, ложная информация, проблемы безопасности.

Akhmedov Bekjan Askarovich

Lecturer at Chirchiq State Pedagogical University

ANALYSIS OF MAJOR THREATS AND RISKS AFFECTING YOUTH IN THE DIGITAL INFORMATION ENVIRONMENT

Abstract: This article focuses on identifying and analyzing the main threats and risks faced by youth in the digital information environment. The study examines factors such as internet security issues, misinformation (fake news), cyberbullying, personal data leakage, and the level of critical thinking towards information. It also highlights the role of educational institutions, parents, and government policy in shaping youth's digital culture. Based on the research findings, practical and pedagogical recommendations are developed to create a safe information environment.

Keywords: digital information, youth, threats and risks, safe information environment, cybersecurity, pedagogy, misinformation, security issues.

Kirish.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda yoshlar ko'plab onlayn platformalarda faol ishtirok etmoqda. Afsuski, bu bilan birga ularga tahdid soluvchi axborot xatarlari soni ham ortmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar

agentligi, Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi, hamda Ta'lim inspeksiyasi yoshlar orasida raqamli xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni olib bormoqda.

Jahon miyosida esa UNESCO, UNICEF, va ITU (Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi) kabi tashkilotlar

bolalar va yoshlarga nisbatan raqamli xavfsizlik, axborot madaniyatini va kiberhujumlardan himoya qilish masalalarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan. 2020-yilgi UNICEF hisobotida yoshlar orasida noto'g'ri axborot va kiberzo'ravonlik eng keng tarqalgan raqamli xatarlar sifatida e'tirof etilgan.

Shu sababli, mazkur mavzudagi ilmiy izlanishlar milliy ta'lif tizimi va axborot siyosatini takomillashtirishda, shuningdek, global xavfsizlik tashabbuslariga hissa qo'shishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar keng tarqalishi bilan bir qatorda, yoshlar uchun axborot muhitidagi xavfsizlik muammolari dolzARB masalaga aylangan. Axborot jamiyatining shakllanishi insoniyat taraqqiyotida muhim burilish bo'lib, moddiy qadriyatlarga asoslangan sivilizatsiyadan "axborot sivilizatsiyasi" deb atash mumkin bo'lgan, raqamli bilim va muloqot ustuvor ahamiyat kasb etadigan yangi bosqichga o'tishni bildiradi. Yangi davrda axborot hayotning deyarli barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq bu taraqqiyot bilan birga, ayniqsa, kiber makonga oid xavf-xatarlar kabi jiddiy muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Bunday tahdidlar ayniqsa maktab o'quvchilari va o'smirlar kabi zaif toifalar uchun xavfli hisoblanadi, chunki ular raqamli dunyoda tobora ko'proq xatarlarga duch kelishmoqda. Kiber makondagi xavf faqat zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi videoo'yinlar bilan cheklanmaydi. Haqiqatan ham bunday o'yinlar aggressivlikni odatiy holga aylantirishi mumkin, biroq internetda bolalar va yoshlar duch keladigan tahdidlar bundan ancha keng ko'lamli. Ular zararli kontent, nomaqbul muloqotlar, xavfli onlayn vositalarning mavjudligi, va eng muhimi — internetdagi anonimlik sababli paydo bo'ladigan kiberzo'ravonlik, tahqir va ekstremistik g'oyalarga ta'sirlanish kabi holatlarga duch kelishmoqda. Bu nafaqat darhol salbiy ta'sir, balki uzoq muddatli psixologik va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili.

Yuqorida maqolada foydalilanigan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi, mualliflar asosan xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNICEF, European Commission) va taniqli olimlarning (Livingstone, Haddon, Castells, Gasser, Benkler) fundamental tadqiqotlariga tayangan. Adabiyotlar orasida nafaqat raqamli xavfsizlik va yoshlarning axborot madaniyatiga doir nazariy manbalar (Livingstone, Hobbs, Castells), balki amaliy yondashuv va siyosiy tavsiyalar beruvchi hujjatlar ham (BIK Annual Report, Yoshlar ishlari agentligi hisobotlari) mavjud. Xususan, Livingstone va Haddonning EU Kids Online loyihasi yoshlarning raqamli xavfsizlik muammolarini tahlil qilishda asosiy ilmiy tayanch bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, Yevropa va AQSh mualliflari tomonidan yozilgan monografiyalar orqali raqamli madaniyat, kiberxavfsizlik va yoshlar ongiga axborot muhitining ta'siri

chuqurroq yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tayyorlangan mahalliy monitoring hisobotlari esa milliy kontekstga mos statistik va amaliy ma'lumotlarni taqdim etgan. Adabiyotlar orasida so'nggi yillarda chop etilgan zamonaviy maqolalar va nufuzli nashrlarga tayangan holda, maqolada xalqaro va milliy tajriba qiyosiy tahlil usulida yoritiganini ko'rish mumkin. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda nazariy va tahliliy metodlar asosida raqamli axborot muhitida yoshlar duch kelayotgan asosiy tahdidlar va xatarlarni aniqlash va tahlil qilish amalga oshirildi. Birinchi navbatda, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNICEF, ITU) va milliy idoralarning (Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi) rasmiy hisobotlari, ilmiy maqolalar va monografiyalar asosida adabiyotlar tahlili olib borildi. Adabiyotlar tahlili davomida yoshlar uchun xos bo'lgan kiberbulling, noto'g'ri axborotlar, shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi va zararli kontent kabi tahdidlar tasniflandi. Shuningdek, kiberxavfsizlik va raqamli madaniyat masalalariga oid ilg'or xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida nazariy umumlashtirish va axborot monitoringi metodlari orqali mavjud tahidlarning milliy va global xususiyatlari ajratib ko'rsatildi hamda ularning yoshlar rivojlanishiga salbiy ta'siri ilmiy asosda bayon etildi. Natijada, xavfsiz raqamli axborot muhitini shakllantirish bo'yicha amaliy va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar olindi.

Natijalar va ularning tahlili.

Axborot va kommunikatsiya inqilobi jamiyat tuzilmasini tubdan o'zgartirib yubordi — endilikda ish, ta'lif va muloqot asosan elektron vositalar orqali amalgalashmoqda. Bu raqamli davr bilimga keng kirish imkonini yaratdi, lekin u bilan birga yolg'on axborot, maxfiylikning buzilishi, manipulyatsiya va firibgarlik kabi salbiy holatlar ham ko'paydi. Ayniqsa yosh foydalananuvchilar ishonchli va yolg'on manbalarni ajrata olmasligi tufayli aldanish xavfi yuqori bo'lib qolmoqda.

Internet butunlay yangi bir raqamli makonni yaratdi — foydalananuvchilar birgina tugmani bosib istalgan turdag'i ma'lumotga erisha oladi. Bu yangi vosita ko'plab an'anaviy axborot manbalarini (radio, televizor, gazeta) ortda qoldirdi. Biroq internetning chegarasiz va tartibsiz tabiatidan kelib chiqib, mavjud nazorat mexanizmlarining yo'qligi turli zararli axborotlarning tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat kiberjinoyatchilar va yovuz niyatli foydalananuvchilar uchun qulay sharoit yaratadi.

Shuningdek, internet ilgari tasavvur qilib bo'lmaydigan interaktiv imkoniyatlarni ham taklif qilmoqda. Masalan, onlayn o'yinlar jahon miqyosidagi hodisaga aylangan — minglab foydalananuvchilar mobil qurilmalar orqali real vaqtida o'zaro o'yinlarda

qatnashishadi. Ammo bu global bog'liqlik toksik muhit, ekran qaramligiga olib keluvchi odatlanish, hatto yosh foydalanuvchilarga nisbatan yovuz niyatli harakatlar kabi tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun ijtimoiy, emotsiyal va kognitiv rivojlanish nuqtayi nazaridan bu muhit yoshlar uchun salbiy oqibatlar keltirishi mumkin.

Axborot jamiyati ko'plab ijobiy imkoniyatlarni taqdim etsa-da (bilim olish osonligi, muloqot quayligi, ommaviy axborot vositalarining demokratlashuvi), u ayniqsa yosh avlod uchun jiddiy xavflarni ham yuzaga keltiradi. Kiber makon kengayib borar ekan, ota-onalar, pedagoglar va siyosatchilar hushyor bo'lshi va yoshlarni himoya qiluvchi tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari zarur. Bundan tashqari, raqamli savodxonlik dasturlarini joriy etish — yoshlarni axborotni tanqidiy baholash, tahdidlarni aniqlash va ongli qarorlar qabul qilishga o'rgatish — bugungi kunda nihoyatda muhimdir.

Global tarmoq, ya'ni "meta-media" deb ham ataluvchi bu fenomen, jamiyatning tuzilmasini tubdan o'zgartirdi va "axborot jamiyati" deb ataluvchi yangi bosqichni yuzaga keltirdi. Bu tushuncha akademik va ommaviy ilmiy adabiyotlarda "tarmoqli jamiyat", "media jamiyat"" yoki "uchinch to'lqin" nomlari bilan ham ishlataladi. Nima bo'lishidan qat'iy nazar, bu barcha tushunchalar bir narsada o'xshashdir — ya'ni, asosiy muloqot vositasi sifatida internet va raqamli axborotdan foydalaniadi, bevosita insoniy aloqalardan esa asta-sekin uzoqlashilmoqda.

Axborot jamiyati insoniyat tarixida moddiy asoslangan hayotdan raqamli bilim va ma'lumotga asoslangan jamiyatga o'tish bosqichini ifodalaydi. Bu o'zgarish natijasida muloqot, mehnat, ta'lif va ijtimoiy munosabatlar yangi shakllarga ega bo'lmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar raqamli makonda yuzaga kelayotgan tahdidlar yoshlarning psixologik, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatmoqda.

Livingstone va Haddon [1] tadqiqotlariga ko'ra, yoshlar internetdan foydalanishda uch turdag'i tahdidiga duch kelishadi:

Kontent xavflari — nomaqbul materiallarga (zo'ravonlik, pornografiya, ekstremizm) duch kelish;

Kontakt xavflari — notarish shaxslar bilan aloqaga kirishish, ularning firibgarlik yoki zarar yetkazish ehtimoli;

Xulq-atvor xavflari — yoshlarning o'zлari nomaqbul kontent joylashtirishi yoki boshqalarga nisbatan zo'ravonlik qilishi (masalan, kiberbullying).

UNESCO [3] tomonidan ta'kidlanganidek, yoshlarning media va axborot savodxonligi darajasi past bo'lsa, ular yolg'on ma'lumotlar, manipulatsiya va feyk yangiliklarga oson ishonishadi. Shu sababli, xavfsiz axborot muhitini shakllantirishda axborot madaniyati va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari muhim hisoblanadi [2].

Shuningdek, Yevropa Ittifoqining "Better Internet for Kids" (BIK) loyihasi ham yoshlar uchun xavfsiz raqamli muhit yaratishning metodik asoslarini ishlab chiqqan.

Olingan ilmiy natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli muhitdagi tahdidlar nafaqat tashqi omillarga (texnologik tahdidlar), balki ichki omillarga ham bog'liq — ya'ni yoshlarning raqamli madaniyati, axborotga munosabati va ijtimoiy mas'uliyyati darajasiga.

Bugungi kunda raqamli tahdidlar:

Kiberbullying (cyberbullying);

Shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi;

Feyk yangiliklar va dezinformatsiya;

Internet orqali radikallashuv xavfi ko'rinishida o'z aksini topmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, maktab va oliy ta'lif muassasalarida raqamli xavfsizlik bo'yicha tizimli ta'lif yo'lga qo'yish zarur. Bu holat yoshlarni o'z raqamli xavfsizligini boshqarishga o'rgatish imkoniyatlarini cheklaydi.

Pedagogik xulosa:

O'quv dasturlariga axborot xavfsizligi, media savodxonlik, va raqamli etikani o'rgatuvchi alohida modullar kiritilishi zarur.

Ota-onalar va o'qituvchilar uchun raqamli xavfsizlik bo'yicha treninglar tashkil etilishi lozim.

Yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar raqamli psixologik tahdidlarni aniqlash va ularga munosabat bildirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Muhokama.


Ko'pgina rivojlangan davlatlarda aholining katta qismi axborotni ishlab chiqarish, qayta ishslash, uzatish va samarali muloqotni yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani shakllantirgan. Kompyuterlar, internet kabi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kundalik hayotga chuqur singib ketgan bo'lib, jamiyatning ishslash uslubini tubdan o'zgartirib yuborgan. Aholi ushbu texnologiyalarni tobora faolroq qo'llay boshlagani sari, AKTning amaliy qo'llanishi milliy iqtisodiyotlarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining milliy daromadga ta'siri ayniqsa sezilarli bo'lib, sanoat sohasi va telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi ham milliy daromadda, ham global ishlab chiqarishda barqaror ravishda ortib bormoqda [11]. Bu sohalar an'anaviy xizmatlar va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan tezroq rivojlanmoqda, bu esa raqamli davrdagi iqtisodiy muvozanatning o'zgarayotganidan dalolat beradi.

Axborot texnologiyalarining keng tarqalishi, ayniqsa, madaniy sohalarda ijtimoiy xohish-istiklarning o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Kino, teatrga borish yoki kitob o'qish kabi an'anaviy mashg'ulotlar asta-sekin ularning raqamli ko'rinnimalari bilan almashtirilmoqda. Bugungi kunda striming platformalari, elektron kitoblar va onlayn media vositalari ko'ngilochar sanoatda yetakchilik qilmoqda. Bu esa elektron axborot vositalari orqali madaniyatni iste'mol qilishga bo'lgan keng ko'lamli

o'zgarishni ko'rsatadi [11]. Bu jarayon qulay va oson kirish mumkin bo'lgan yangi imkoniyatlarni taqdim etsada, axborot sivilizatsiyasi olib kelayotgan jamiyatdagi chuqur o'zgarishlarni ham namoyon etadi.

Axborotga asoslangan jamiyatning shakllanishi nafaqat shaxslar, balki butun iqtisodiyotlar uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. AKT yordamida samaradorlik, innovatsiyalar va global bog'lanish kuchayadi, bu esa iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotga turki beradi [12]. Biroq bu yutuqlar bilan birga bir qator muammolar ham yuzaga chiqmoqda, ayniqsa kiberxavfsizlik sohasida. Jamiyat raqamli texnologiyalarga tobora ko'proq tayanar ekan, kiberxavflar, ayniqsa yosh avlod uchun, kuchayib bormoqda. Bu tahdidlar orasida shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi, shaxsni o'zlashtirish, onlayn tazyiq va nomaqbul kontentga duch kelish holatlari mavjud. Ayniqsa bolalar va o'smirlar uchun internetdan xavfsiz foydalanishni ta'minlash ushbu muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadi, raqamli axborot muhitida yoshlar uchun asosiy tahidlar:



Rasm 1. Diagrammada yoshlar uchun raqamli muhitdagi asosiy tahidlar ko'rsatilgan: soxta ma'lumotlar (30%), kiberzo'ravonlik (25%), shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi (20%), zararli kontent (15%) va internetga qaramlik (10%). Eng ko'p uchraydigan tahid – noto'g'ri axborot.

Soxta ma'lumotlar va dezinformatsiya: Yoshlar internet orqali tez va ko'p hajmda axborot qabul qilmoqda. Biroq bu axborotlar orasida yolg'on, noto'g'ri yoki manipulyatsiya qilingan kontent keng tarqalgan. Bu esa ularning dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kiberzo'ravonlik (cyberbullying): Tadqiqotlar ko'rsatishicha, yoshlarning muayyan qismi ijtimoiy tarmoqlarda tahqirlash, haqorat, psixologik bosim kabi salbiy holatlarga duch kelgan. Bu holat ularning psixologik salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi.

Shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi: Ko'plab yosh foydalanuvchilar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini himoyalash bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega emas.

Bu esa ularni firibgarlik, fishing va boshqa kiberjinoyatlarga nisbatan zaif holga keltiradi.

Zararli kontent (zo'ravonlik, ekstremizm, giyohvandlik targ'iboti): Ba'zi raqamli platformalarda yoshlar uchun xavfli va salbiy ijtimoiy hodisalarini targ'ib qiluvchi materiallar ochiq mavjud bo'lib, ular ongli yoki ongsiz tarzda yosh avlod ongiga ta'sir qiladi.

Internetga qaramlik va e'tiborni yo'qotish: Ortiqcha va nazoratsiz internetdan foydalanish yoshlarning o'qish, jismoniy faollik va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ularning hayot sifati va ta'lim samaradorligini pasaytiradi.

Yuqorida tahididlarning mavjudligi yoshlar raqamli muhitdan foydalanishda ehtiyyotkorlikni talab qilishini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, bu muammolarni bartaraf etishda pedagogik yondashuv va tarbiyaviy mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar va kompyuter tarmoqlarining paydo bo'lishi ma'lumot, bilim va ko'ngilochar kontentni yaratish, tarqatish, ularga kirish va ularni (qayta) ishlatish usullarini tubdan o'zgartirdi [11]. Bu o'zgarishlar internetda misli ko'rilmagan hajmdagi ma'lumotlar paydo bo'lishiga va axborot ekotizimining sifat jihatidan o'zgarishiga olib keldi. Raqamli media ekotizimi axborot sifatini o'rganishda eski analog tizimlarga (kitob va jurnal nashrlari, televideniye va radioeshittirishlar) qaraganda murakkab va boyroq masalalarni ko'rib chiqishni talab qiladi [12].

Bugungi kunda axborot sifatini baholash ancha qiyinlashgan. Bunga bir qancha omillar sabab bo'lmoqda [13; 12–14-betlar]. Boshqa tomondan, ma'lumotlarga ko'ra, internet raqamli texnologiyalarga ega bo'lgan va undan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lgan yoshlar uchun eng muhim axborot manbalaridan biriga aylangan [10]. Bu holatlar axborot sifati masalasining ahamiyatini – nafaqat miqdor, balki sifat nuqtayi nazaridan ham – alohida ta'kidlaydi. Bu masala individual va jamiyat darajasida birdek dolzarb hisoblanadi.

Xulosa.

Shu asosda, hozirgi vaqtida bu mavzuga bag'ishlangan, turli nomlar ostida yuritilayotgan, turli maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi ilmiy yo'nalishlar shakllanmoqda. Siyosiy yo'naltirilgan tadqiqotlar orasida kontent sifatining minimal darajasiga e'tibor qaratilgan, ya'ni madaniy yoki ijtimoiy kontekstda nomaqbul yoki zararli deb hisoblanadigan materiallarni o'rganishga bag'ishlangan ishlar mavjud. Boshqa bir yo'nalish – yangi turdag'i vositachilar (masalan, qidiruv tizimlari) bilan bog'liq sifat muammolarini tahlil qiladi. Uchinchi yo'nalish esa raqamli muhitda axborot sifatini baholash uchun zarur bo'lgan yangi ko'nikmalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, talab tomonidagi masalalarni qamrab oladi. Demak, raqamli axborot muhitida yoshlar uchun mavjud tahidlar soni ortib bormoqda va bu xatarlar turlicha shaklda namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatadi:

- ✓ Axborot xavfsizligi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarning yo'qligi yoshlarni himoyasiz holga keltirmoqda;
- ✓ Shaxsiy ma'lumotlar, ruhiy holat va axloqiy qadriyatlar raqamli tahdidlar ta'sirida zaiflashmoqda;
- ✓ Pedagogik va tarbiyaviy choralar yetarli darajada yo'lga qo'yilmasa, bu tahdidlar uzoq muddatli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shu boisdan, maktab va oliv ta'lim muassasalarida raqamli savodxonlikni oshirish, xavfsiz axborot muhitini yaratishga qaratilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, otanalar va pedagoglar bilan hamkorlikda yoshlarni raqamli madaniyatga o'rgatish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Livingstone, S., & Haddon, L. (2009). EU Kids Online: Final Report. LSE, London.
2. Hobbs, R. (2010). Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. Corwin.
3. UNESCO (2021). Media and Information Literacy Curriculum for Teachers.
4. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (2022). Yoshlar va raqamli xavfsizlik mavzusidagi monitoring hisobotlari.
5. European Commission (2020). Better Internet for Kids (BIK) Annual Report.
6. Livingstone, S., & Third, A. (2017). Children and young people's rights in the digital age: An emerging agenda. *New Media & Society*, 19(5), 657–670.
7. Islomovich I. T. et al. Perspectives of employing world experience in providing academic and financial independence to higher education //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 232-235.
8. Clark M. The social consequences of the information civilization: Cyber risks to youth in the digital age //Journal of Policy Options. – 2022. – Т. 5. – №. 2. – С. 20-27.
9. Castells, M. (2007). Age of information: economics, society and culture. Volume 1, Network Society. Scientific Publishing House, Warsaw.
10. Gasser U. et al. Youth and digital media: From credibility to information quality //Berkman Center Research Publication. – 2012. – №. 2012-1.
11. Madden, A. D., Ford, N. J., Miller, D., & Levy, P. (2006). Children's use of the Internet for information-seeking: What strategies do they use and what factors affect their performance? *Journal of Documentation*, 62(6), 744-761.
12. Flanagin, A. J. & Metzger, M. J. (2008). Digital media and youth: Unparalleled opportunity and unprecedented responsibility. In M. J. Metzger & A. J. Flanagin (Eds.), *Digital media, youth, and credibility* (pp. 5-27). The John D. and Catherine T. MacArthur Foundation series on digital media and learning. Cambridge, MA: The MIT Press.
13. Benkler, Y. (2006). *The Wealth of Networks: How Social Production Transforms Markets and Freedom*. New Heaven, CT: Yale University Press.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari.	572
A.Boymirzayev.....	572
Zichlik funksional nazariysi asosida VESTA, Burai va Quantum ESPRESSO dasturlarining fizikadagi o'rni va qo'llanilishi.	577
D.Xajibayev, I.Jaksimuratov, A.Jalekeshov.....	577
Grammar teaching approaches in primary efl (5th and 6th grades): a comparative study of deductive and inductive methods.	581
X.Azamatova.....	582
Texnologik jarayonlarni modellashtirishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari.	588
Sh.Shoyimov.....	588
Tibbiy ta'linda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari.	592
G.Muxammadova.....	592
Bo'lajak mакtabgacha ta'lism tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari.	596
S.Xabibullayeva.....	596
O'quvchilarda internet savodxonligi madaniyatini tarbiyalash va rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.	600
M.Dedaxonova.....	600
Alaliya nutq nuqsonining sabablari, belgilari va bartaraf qilish usullari.	603
Sh.To'reniyazova.....	603
Klax pedagogikasining zamonaviy ta'lindagi ahamiyati va amaliy qo'llanilishi.	608
N.Adilova.....	608
Raqamlı axborot muhitida yoshlarga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy tahdidlar va xatarlarni tahlil qilish.	612
B.Axmedov.....	612
Tizimli yondashuvga asoslangan holda fizika fanini kimyo ta'lim yo'nalishi talabalariga o'qitish metodikasi.	617
D.Begmatova, O.Iskandarov, B.Yakubova, O.Suvonova.....	617
Talabalarning xalq hunarmandchiligi bo'yicha ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish holati.	622
S.Esanova.....	622
"Cheksiz chuqur potensial o'ra" mavzusini raqamlı texnologiyalar yordamida o'qitish metodikasini takomillashtirish.	625
E.Muxtarov.....	625
Globallashuv davrida kommunikativ madaniyat muammolari.	632
N.Vakilova.....	632
Yuqori sinf o'quvchilarini jismoniy tayyorgarlik darajalarini rivojlantirishda xorijiy tajribalar taxlili.	637
G'.Abdullayev.....	637
Geografiya darslarida gis va raqamlı xaritalar orqali fazoviy tafakkurni rivojlantirish.	641
D.Davlatova.....	641
Matnni modellashtirishni o'rgatish tamoyillari. O'qitishning umumiy didaktik tamoyillarini amalga oshirish.	645
M.Hamrayeva.....	645
Forsight modellashtirish va qaror qabul qilish kompetensiyalarining integratsiyasi.	649
S.Hasanova.....	649
Maktabgacha yoshdagagi bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik asoslari.	652
Z.Latibjonova.....	652
O'quv mashg'ulot guruxi futbolchilarini ampulasi bo'yicha jismoniy rivojlanganligini tuzulishi.	655
K.Shokirjonov.....	655
Psiyologiya fanlarini o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari.	660
J.Karimov.....	660
"Molekulyar fizika" bo'limini fizika va kimyo fanlarining integratsiyalashgan holda o'qitish zarurati.	663
M.Ergasheva, E.Vazirova.....	663
Tarix fanini o'qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalar.	666
J.Muhammadiev.....	666
Tarbiyaviy faoliyatning kompetensiya shakllanishidagi o'rni: axloqiy, madaniy va ijtimoiy tarbiya jarayonida umumkasbiy ko'nikmalarining integratsiyasi.	670
S.Sanayeva.....	670
Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faoliyot ko'nikmalarini rivojlantirish.	675
M.Rejabboyeva.....	675
Malakali bokschilarining jangovar faoliyatini modelli tafsiflari.	679
V.Anashov.....	679